



TOSHKENT VILOYATIDA INNOVATSIYA FAOLIYATI



**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**




INNOVATSIYA

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi.

Innovatsiya bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir

Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega

Innovatsiya deb - yangi ko'rinishda mahsulot (tovar, ish, xizmat) yaratilishini yoki takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishi joriy qilinishini yoki ushbu jarayonning takomillashtirilishini, biznesni yuritishda yangi marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishini, ish o'rinlari tashkil etishni yoki tashqi aloqalar o'rnatilishini o'zida mujassamlashtirgan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi




Toshkent viloyatida 2020- yilda 137 ta korxonalar va tashkilotlar birinchi marta innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlarni o'zlashtirgan bo'lib, ular tomonidan 4247083,9 mln. so'mlik innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Bundan tashqari xo'jalik yurutuvchi subyektlar tomonidan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar 2018-2019- yillar davomida 363 ta o'zlashtirgan va 2017-2019- yillar davomida 579 tasi takomillashtirilgan.





**2020- YILDA O'Z KUCHI BILAN ISHLAB
CHIQARILGAN INNOVATSION
MAHSULOTLAR, ISHLAR, XIZMATLAR
HAJMI (QQSSIZ) mln. so'm**




- 2020- yilda birinchi marta o'zlashtirilgani
- 2018-2019- yillarda birinchi marta o'zlashtirilgani
- 2017-2019- yillarda birinchi marta o'zlashtirilgani

Toshkent viloyati bo'yicha jami 4247083,9 mln. so'mlik innovatsion mahsulotlar, ishlar va tovarlar bajarilgan.

Jumladan: 2020- yilda birinchi marta o'zlashtirilgan innovatsiyalar jami 518634 mln. so'm, 2018-2019- yillar davomida birinchi marta o'zlashtirilganlari hajmi 1746245,6 mln. so'm, 2017-2019- yillar davomida takomillashtirilganlari jami 1982204,3 mln. so'mni tashkil etdi.




2020- YILDA QILINGAN TEXNOLOGIK INNOVATSIYALAR SONI






2020- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz) mln. so'm



2020- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar 2020- yilda birinchi marta o'zlashtirilgan innovatsiyalar hajmi 297204 mln. so'mni, 2017-2018- yillar davomida birinchi marta o'zlashtirilganlari hajmi 925034 mln. so'mni, 2017-2019-yillar davomida takomillashtirilganlari hajmi 281225 mln. so'mni tashkil etdi.



2020- YILDA MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA TEXNOLOGIK, MARKETING VA TASHKILY INNOVATSIYALARGA XARAJATLAR, mln. so'm



2020- yilda moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga jami xarajatlar 936367 mln.so'm, tashkilotning o'z mablag'lari - 823777,8 mln. so'm, chet el investitsiyalari - 1876,1 mln. so'm, tijorat banklarining kreditlari - 98786,7 mln. so'm, imtiyozli shartlarda berilgan kreditlar - 234,8 mln. so'm.

**Ijtimoiy soha
statistikasi bo'limi**
Tel: (71) 202-86-80